

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni omma-lashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi.



Sport yuksak madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitibgina qolmasdan, barcha yurtdoshlarimizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.




O'zbekiston Respublikasida 2019-yil yakuniga ko'ra jami 51651 ta sport inshootlari mavjud bo'lib, shundan 27591 ta (53,4 %) si qishloq joylarida tashkil etilgan bo'lsa, 24060 ta (46,6 %) si shahar joylarida joylashgan. Shuningdek, jami sport inshootlarining bir kunlik quvvati 2136,8 ming kishini, qishloq joylarida 1036,9 ming (48,5 %) kishini tashkil etsa, shahar joylarida esa 1099,9 ming kishiga teng.

Jismoniy tarbiya va sport klublari soni jami 12282 tani tashkil etib, ulardan 60 % i (7328 tasi) qishloq joylari va 40 % i (4954 tasi) shahar joylari ulushiga to'g'ri keladi.

Sport inshootlarining hududlar kesimidagi statistik tahlilidan ko'rish mumkinki, sport inshootlarining soni jihatidan eng ko'p qismi Farg'ona – 5772 ta, Samarqand – 5555 ta va Qashqadaryo viloyatlarida – 5131 ta barpo etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida esa, aksincha, 1788 ta va 1559 tani tashkil etadi.

2019-yilda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar soni



Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar soni jami 6631,1 ming nafarni tashkil etib, ulardan, 6114,5 kishi umumta'lim muassasalari, 72,9 ming kishi akademik liceylar, 239,5 ming kishi kasb-hunar kollejlari hamda 204,2 ming kishi oliy ta'lim muassasalari ulushiga to'g'ri kelgan.

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning boshqa ta'lim muassasalariga nisbatan eng ko'p qismi umumta'lim muassasalari (92,2 %) ko'rsatkichiga tegishli.



Sport seksiyasi va bo'limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug'ullanayotganlar jami 2727,4 ming kishiga teng bo'lib, shundan 1074,0 ming kishi (39,4 %)ni qizlar (ayollar), 1653,4 ming kishi (60,6 %)ni o'g'il bolalar (erkaklar) tashkil etadi. Sport seksiyasi va bo'limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug'ullanayotganlarning umumiy soniga nisbatan 47,2 % i (1287,1 ming kishi) qishloq joylariga to'g'ri kelsa, 52,8 % i (1440,3 ming kishi) shahar joylari ulushiga teng.


Sport inshootlari turlarining statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019-yilda mamlakatimizda jami 51651 ta sport inshootlari mavjud bo'lib, ulardan, stadionlar – 417 ta (0,8 %), sport zallari – 10863 ta (21,0 %), suzish basseynlari – 316 ta (0,6 %), otish tirlari - 142 ta (0,3 %), sport maydoncha va maydonlari - 39841 ta (77,1 %), otchoparlar - 8 ta (0,01%), manejarlar - 24 ta (0,05%) hamda o'q otish va stendga otish joylari - 40 ta (0,08%)ni tashkil etgan.

2019-yilda sport inshootlari soni, birlikda



2019-yilda jami 331 ta sport-ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, shundan 311 ta (94 %)si shahar joylarida joylashgan bo'lsa, 20 ta (6 %)si qishloq joylari ulushiga to'g'ri keladi. Faoliyat olib borayotgan sport-ta'lim muassasalarining turlari bo'yicha statistik tahlildan ko'rish mumkinki, bolalar va o'smirlar sport maktablari soni 230 ta, ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari soni 54 ta, Olimpiya zahiralari kollejlari soni 15 ta, ixtisoslashtirilgan maktab internatlari soni 15 ta, Oliy sport maqorati maktablari soni 12 ta hamda Olimpiya zahiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari soni 5 tani tashkil etgan.

2019-yilda faoliyat ko'rsatgan sport-ta'lim muassasalari



Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, sport mashqlariga bo'lgan ko'nikmalarini oshirish uchun bir yilda bir marta "Alpomish" va "Barchinoy" testlari o'tkazilib turiladi. "Alpomish" va "Barchinoy" testlarini topshirganlarning umumiy soni 4824,4 ming kishini tashkil etadi, ulardan 2294,8 ming nafari "Barchinoy" testlarini topshirgan. Ularning 13,5 % i Farg'ona viloyatida, 10,9 % i Samarqand viloyatida va 10,6 % i Namangan viloyatida, shu bilan birga, Andijon viloyatida - 3,2 %, Sirdaryo viloyatida - 3,6 %, Navoiy viloyatida - 3,7 %.

2019-yilda hududlar bo'yicha ta'lim muassasalarida "Alpomish" va "Barchinoy" testlarini topshirganlar soni, ming kishi

	Jami	ulardan o'quvchilar:			
		umumta'- lim muassasa- larida	akademik litsey- larda	kasb-hunar kollejarida	oliy ta'lim muassasalarida
O'zbekiston Respublikasi	4810,6	4402,2	40,9	269,2	98,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	298,6	281,2	2,8	8,6	6,0
viloyatlar:					
Andijon	150,9	136,2	1,4	11,3	2,0
Buxoro	362,3	327,0	3,2	19,2	12,9
Jizzax	265,7	254,5	1,1	4,9	5,2
Qashqadaryo	340,2	308,0	4,7	22,9	4,6
Navoiy	176,3	162,4	3,4	3,2	7,4
Namangan	512,6	479,9	5,1	22,9	4,6
Samarqand	528,5	422,3	5,0	91,5	9,7
Surxondaryo	300,2	283,8	0,6	6,9	8,8
Sirdaryo	168,4	145,2	1,2	19,7	2,4
Toshkent	335,3	308,4	1,0	13,5	12,4
Farg'ona	650,4	630,6	1,4	14,2	4,1
Xorazm	366,1	350,4	4,0	8,0	3,8
Toshkent sh.	355,1	312,3	6,0	22,4	14,4

"Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarining maqsadi aholining barcha qatlamlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali ularni jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, jismoniy qobiliyati va harakat faolligini takomillashtirish, jismoniy va ruhiy barkamollikka erishtirish, mehnatga layoqatini oshirish, zararli odatlar hamda turli kasalliklarning oldini olish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, sport musobaqalari orqali yoshlarda iroda, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch kabi fazilatlarni mustahkamlashdan iborat. "Alpomish" testi erkaklar uchun, "Barchinoy" - ayollar uchun mo'ljallangan.

**2019-yilda hududlar bo'yicha jismoniy tarbiya-sport
hodimlari soni, kishi**

	Jismoniy tarbiya-sport xodimlari		Ulardan, trenerlar
	jami	ulardan, ayollar	
O'zbekiston Respublikasi	49665	11740	14164
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3768	687	1092
viloyatlar:			
Andijon	3666	776	1222
Buxoro	3308	797	1198
Jizzax	2565	303	669
Qashqadaryo	3415	698	1030
Navoiy	2448	740	732
Namangan	3415	698	1029
Samarqand	4951	1021	1057
Surxondaryo	4073	1060	525
Sirdaryo	1607	333	505
Toshkent	5184	1397	1858
Farg'ona	5487	1348	1249
Xorazm	2864	757	798
Toshkent sh.	2914	1125	1200

2019-yilda hududlar bo'yicha sport-ta'lim muassasalari ishining asosiy ko'rsatkichlari

	guruhlar (seksiya) soni, ming birlikda	shug'ullanuvchilar umumiy soni, ming kishi	ulardan ayollar
O'zbekiston Respublikasi	24,0	404,4	102,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,4	32,4	9,1
viloyatlar:			
Andijon	2,9	37,5	9,3
Buxoro	4,5	64	16,8
Jizzax	1,3	17,5	4,5
Qashqadaryo	0,3	24,9	5,9
Navoiy	1,4	20,4	5,4
Namangan	2,1	28	7,4
Samarqand	2,4	33,6	8,6
Surxondaryo	0,3	22,5	4,6
Sirdaryo	0,3	16	4,8
Toshkent	2,2	29,9	6,3
Farg'ona	2,4	33,3	8,2
Xorazm	1,8	23,8	6,4
Toshkent sh.	1,7	20,6	5,1

Sport-ta'lim muassasalari ishining asosiy ko'rsatkichlari tahlilidan ko'rinadiki, 2019-yilda respublikamizda jami guruh (seksiya)lar soni 24,0 mingtani tashkil etgan. Undagi shug'ullanuvchilar soni esa, 404,4 ming kishi bo'lib, shundan 25,3 % i (102,4 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

Hududlar bo'yicha statistik tahlil qilinganida, guruh (seksiya)lar sonining eng yuqori ulushi 18,8 % Buxoro va 12,2 % Andijon viloyatlariga, eng kam ulush esa 1,0 % Qashqadaryo va 1,2 % Sirdaryo viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

2019-yilda guruh (seksiya)larda olimpiya va sport turlari bilan
shug'ullanuvchilar



Guruh (seksiya)larda Olimpiya sport turlari bo'yicha shug'ullanuvchilar soni jami 404,4 ming kishini tashkil etgan. Shundan, suzish sport turi bo'yicha shug'ullanuvchilar 10,8 ming kishini, basketbol – 14,3 ming kishi, erkin kurash – 13,2 ming kishi, yengil atletika – 15,2 ming kishi, stol tennisi – 20,9 ming kishi, voleybol – 27,5 ming kishi, badiiy gimnastika – 27,7 ming kishi, futbol – 42,4 ming kishi va boshqa sport turlarida – 232,4 ming kishini tashkil etadi.

2019-yilda guruh (seksiya)larda milliy sport turlari bilan shug'ullanuvchilar, kishi



2019-yilda guruh (seksiya)larda Milliy sport turlari bo'yicha shug'ullanuvchilar soni jami 49,1 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan 59,6 foizi (29,3 ming kishi) kurash sport turi, 17,9 % i (8,8 ming kishi) belbog'li kurash, 12,2 % i (5,9 ming kishi) o'zbek jang san'ati hamda 10,2 % i (5,1 ming kishi) turon sport turi bilan shug'ullanuvchilar hisoblanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Sport turi – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi bo'lib, u insonning sport musobaqalariga o'ziga xos tarzda tayyorgarlik ko'rishi bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini o'tkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalarga, nizomga (reglamentga) ega bo'ladi.

Jismoniy tarbiya – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, me'yorlar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismi.

Jismoniy tarbiyalash – yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon.

Milliy sport turlari – har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati va dam olish sharoiti asosida rivojlangan sport turi hisoblanadi.